



JALOLIDDIN MANGUBERDINING HARBIY-PSIXOLOGIK MAHORAT MAKTABI

Qobulov S.M.

O'R OHABY boshlig'ning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar
bo'yicha o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7519976>

ARTICLE INFO

Received: 01st January 2023

Accepted: 08th January 2023

Online: 10th January 2023

KEY WORDS

Xorazmshohlar, qo'shinlar ruhiy barqarorligi, jangovar nutq, harbiy hiyla, maydon jangi, muqobil to'qnashuv, devoni arz, harbiy kengash, harbiy usullar, pistirma, jangovar kayfiyat, Islom dunyosining himoyachisi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada xorazmshohlar saltanatining qo'shin boshqaruv tartibi, Jaloliddin Manguberdining harbiy sarkarda sifatida qo'llagan taktikalari, harbiy mahorati va qo'shinlar ruhiy barqarorligiga erishishda amalga oshirgan tadbirlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Sultonning turli xil jang qilish usullaridan foydalanib ko'plab janglarda g'alaba qozonganligi bayon qilingan.

Shuningdek, turli axborot-psixologik xurujlarini tarqatish orqali shahar mudofaachilari orasida sarosimi va o'z kuchiga nisbatan ishonchni so'ndirish maqsad qilingan. Ruhiy barqarorlikni qo'shinlar jangovar g'alabasini ta'minlashda muhim omil ekanligini inobatga olsak, bu hiylalarning nechog'liq dahshatli ekanligi ko'z oldimizga keladi. Jangchining jangovarlik sifatlariga to'g'ri baho bera olish, jang davomida bo'linmalardan oqilona va o'z o'rnida foydalana olish, jangovar harakatlar oldidan jangovar nutqning qo'shinlar ruhiy holatini o'zgarishiga alohida urg'u berilgan.

Kirish. Jaloliddin Manguberdining jasoratlari asrlar o'tsa hamki, o'z qadr-qimmatini, ahamiyatini yo'qotmaydi. U kishida Vatanparvarlikdek Oliy Tuyg'uga xizmat qilish impulsini jo'sh urdirib turadi...Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdining harbiy sarkarda sifatida qo'llagan taktikalari, harbiy mahorati va qo'shinlar ruhiy barqarorligiga erishishda amalga oshirgan tadbirlariga asosiy e'tibor qaratilgan, shuning uchun Sultonning surati-yu siyrati bilan boshlashni ma'qul topdik.

Jaloliddin Manguberdining yaqin a'yonlaridan biri bo'lgan, mashhur tarixchi Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy buyuk bobomizni shunday tasvirlagan: "...U bug'doyrang, o'rta bo'yli, turkiy qiyofali va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga, forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, janglardagi qahramonliklarini eslab o'tishning o'zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U... jahldor emasdi, haqoratomuz



so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi"¹. Uning jangovar chaqirig'i: "Yordam faqat Ollohdandir!"².

XIII asrda mo'g'ullar zulmiga qarshi kurashgan, yurt ozodligi uchun jon fido qilgan Anushteginiylar sulolasining so'ngi vakili sulton Jaloliddin Manguberdi Afg'oniston, Xindiston, Eron, Iroq, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston va Abxaziya kabi davlatlarda shiddatli janglar o'tkazib, yirik g'alabalarni qo'lga kiritdi. Sulton Jaloliddinning tengsiz janglarda g'alaba qozonishi sultonning turli xil jang qilish usullaridan foydalanganligi bilan izohlanadi. Jaloliddinning umumiy holatda jang qilish shakllari maydon jangi, qurshovga olish va muqobil to'qnashuv tarzida uch xil bo'lgan³.

Adabiyotlar tahlili. Yuqorida nomlari ta'kidlab o'tilgan jang shakllaridan muqobil jang qilish shakli unchalik yirik bo'lmagan miqyosdagi jang shaklidir. Maydon jangi ko'lam jihatdan muqobil to'qnashuvga nisbatan keng bo'ladi. Sulton maydon va muqobil janglarda qo'shinini o'rta asrlarga xos an'anaviy holatda safga tortgan⁴.

Manbadan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm shohlari o'z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimini joriy qilgan. Xorazmshohlar davrida qo'shinga oid boshqaruv ishlari bilan buyuk devonning bo'limi - **devoni arz** shug'ullangan.

Xorazmshohlar qo'shinida bayroq, ot va qurol-aslahaga alohida ahamiyat berganlar. Xorazmshoh qo'shinining qismlari ham davlatning ramzi bo'lgan qora bayroq ko'tarib yurgan. Xorazmshohlarda katta amirlarning, ya'ni xon, malik va amirlar, urug' boshliqlarining ham o'z ramzlari aks ettirilgan bayroqlari bor edi.

Sulton jangda avval qo'shinni rasmiy ko'rikdan ham o'tkazardi. Bu yo'l bilan sulton askarlarining tayyorgarligini va ularning anjomini nazorat qilardi. Bundan tashqari, rasmiy ko'rik askarlarning ruhini ko'tarishga ham xizmat qilardi.

Qo'shinda ilg'or qismning vazifasi odatda razvetka ishlari bilan shug'ullanish bo'lgan. Raqib tomon bilan jangda ilg'or qismning o'rni katta bo'lgan va vaziyatga qarab qism tarkibiga o'zgartirishlar kiritilib turilgan. Bunday holatda raqib tomonning qo'shini sulton qo'shiniga nisbatan katta bo'lsa, qo'shinning ilg'or qismiga eng jasur va sara jangchilar joylashtirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad saralab olingan jangchilar dushman saflarini tezda yorib kirishi qolgan jangchilarning ruhiy holatiga va jangovarlik sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Xindistonda Shatra Ranasi qo'shinlariga qarshi jangda ilg'or qismni kuchaytirib unga o'zi bosh bo'lgan⁵. Sababi son jihatdan ustun bo'lgan dushman qo'shini yaqinlashmasidan ularga kuchaytirilgan ilg'or qism tomonidan beriladigan birinchi zarbadayoq ularni parokanda holatiga keltirish kerak bo'ladi. Yoki xuddi shunga o'xshash holatni biz Hind viloyatining hukmdori Shamsutdin Eltutmish bilan to'qnashuvda ham kuzatishimiz mumkin. Bu to'qnashuvda Jahon Pahlavon O'zbek Toyi kuchaytirilgan ilg'or qismga bosh bo'lib dushmanga

¹ Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. "Султон Жалолиддин Мангубердининг ҳаёти тафсилоти". Т.: "Ўзбекистон" нашриёти. Камол Матёқубов таржимаси. Б-422.

² Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. "Султон Жалолиддин Мангубердининг ҳаёти тафсилоти". Т.: "Ўзбекистон" нашриёти. Камол Матёқубов таржимаси. Б-423. Matyاقubov E.A. Xorazmshohlar - Anushteginlar davlatining ma'muriy va saroy boshqaruv tizimi, unvonlar va mansablar. (Magistrlik akademik darajasini olish uchun dissertatsiyasi). Urganch. B-82.

³ Хасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2018.

⁴ М. Ақобиров. Султон Жалолиддин Мангубердининг жанг қилиш усуллари. Мақола 2-б.

⁵ Насавий Шаҳобиддин Мухаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти / Таржима ва сўз боши муаллифи Матёқубов Камол. Т.: ФАН, 2018. Б-139



karshi birinchi zarbani beradi va raqib qo'shinining ilg'orini yorib o'tib asosiy qo'shinini o'rtasidan chiqib ularni parokanda holatiga keltiradi. Shundan keyin dushman qo'shinini nazorat qilish osonroq bo'ladi⁶.

Sulton Jaloliddin ochiq va maydon janglarida pistirma qo'ygan. U Qo'shtemur boshchiligidagi xalifa qo'shinlariga qarshi pistirma qo'yganda dushmanni pistirma yo'qligiga ruhan ishontira olgan, ya'ni qo'shinining ma'lum kismini pistirmaga qoldirib, 500 ta otliq bilan dastlab dushmanning markaziga, keyin o'ng va chap qanotlariga hujum uyushtirib go'yoki o'zini rasmana jangga kirgandek ko'rsatadi⁷.

Sulton son jihatdan ustun bo'lgan va turli qavmlarning ittifoqidan tarkib topgan dushman qo'shini bilan jangga kirishdan oldin, raqib tomon armiyasini kuch-qudrati va tarkibini o'rganib, ularni diplomatik yo'l bilan parchalashga harakat qilgan⁸. Masalan, 1227-yilda Rum, Suriya, Abxaz, Gurji, Qipchoq hukmdorlari sultonga qarshi ittifoq tuzadilar. Sulton esa dushman lashkarlari tarkibida qipchoqlarni borligini bilgach, ularga non va tuz yuboradi. Shundan so'ng qipchoqlar o'z qo'shini bilan kelib sulton yonidan o'z o'rnini egallaydilar. Sulton Jaloliddin qo'shin ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkazish uchun jangdan oldin alohida bahodirlar jangini tashkil qilgan. Masalan, 1227-yil gurlar bilan jangga kirishdan avval sulton raqib tomonga alohida yakkama-yakka olishuvni taklif qilgan. Shundan so'ng u gurchilar tomondan tog'dek pahlavonni va undan keyin Aznavr unvonli paxlavonni navbati bilan olishuvda mag'lub qiladi. Bu esa sulton qo'shini ruhiyatiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan⁹.

Sulton Jaloliddin armiyasida ot ham alohida ahamiyat kasb etgan. Biroq Hindistonga yurishi vaqtida sulton Shamsiddin Eltutmishning fillardan tuzilgan maxsus harbiy qism qarshiligiga duch keladi. Bunday vaqtda ot ham kutilgan g'alabani qo'lga kiritish uchun imkoniyat yaratib bera olmaydi. Shundan so'ng sulton Jaloliddin 500 ta tuyani tayyorlatib, ularning ustiga neft shimdirilgan yog'och bo'laklarini taxlatadi va ularni yoqishni buyuradi. O'zi tomon kelayotgan olovni ko'rgan fillar boshqaruvga bo'ysunmay ortga chekinib, hind askarlarini yanchib ketadi¹⁰.

Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida xorazmshohlar davlatida o'ziga xos diarxiya – ikkihokimlik tuzumi vujudga kelgan: mutlaq hukmdor deb sulton Muhammad hisoblanardi, ikkinchi tarafdin u o'z onasi Turkon xotunning itoatida edi. Turkon xotun esa davlatning ichki va tashqi ishlarida ikkinchi hukmdor, ayrim masalalarda hatto sultonga muxolif ham edi. Xorazmshohning buyruq va farmonlari ko'pincha qudratli Turkon xotun tomonidan bekor qilinar va hech qanday kuchga ega bo'lmay qolardi¹¹.

Matetiallar va metodlar. Mo'g'ullar bosqini arafasida Xorazmshoh harbiy kengash chaqiradi. Unda atoqli davlat arbobi Shahobiddin Abu Sa'd ibn Imron al-Xivaqiy Alouddinga barcha lashkarlar bilan (600 minglik!) Chingizxonga qarshi chiqish kerak, degan taklifni

⁶ Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жахонгушо. / Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Рахим, Мурсал Узтурк. Т.: Мумтоз сўз, 2015. Б-389-390

⁷ Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жахонгушо. / Таржима ва суз боши муаллифи Назарбек Ра*им, Мурсал Узтурк. Т.: Мумтоз суз, 2015. Б. 373

⁸ Хасанов Ф. Турон халклари х;арбий санъати. Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2018.Б.322

⁹ Буниёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) / Ашраф Аҳмад ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси. Тошкент, 1998. Б. 122

¹⁰ Жумабой Рахимов. Ватаннинг шерюрак баҳодири. Т.: Талқин, 2015. Б. 494-495

¹¹ Буниёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) / Ашраф Аҳмад ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси. Тошкент, 1998. - Б. 159.



o'rtaga tashlaydi. (Chingizxonning qo'shinlari soni Xorazmshohnikidan 3-4 barobar kam edi!) Manguberdi ham foydali maslahat beradi. Uning fikri bo'yicha, dushmanni Movarounnahrga kiritib, so'ng mahalliy yerni dushmanga nisbatan yaxshi bilganlikdan foydalanib, uni yakson etish ko'zda tutilardi. Biroq Alouddin Muhammad bu takliflarni rad etib, barcha qo'shinini shahar va qal'alarga bo'lib, parchaladi. (Ba'zi tarixchilar bu oxiri yaxshi o'ylanmay qilingan ishga Alouddin Muhammadning Chingizxonni mensimagani sabab bo'lgan, deyishsa, boshqa tarixchilar bu paytda Xorazmshohning o'z atrofidagi a'yonlariga ishonchi susaygani vaj bo'ldi, deb yozishadi.) Oqibatda, Chingizxonda raqib kuchlarini bittama-bitta, osongina qirib tashlash imkoni tug'ildi va u buni uddaladi ham.

Mo'g'ullar istilosi arafasida turli mish-mishlar tarqalib ketadi, ya'ni: "Chingizxonning atrofidagi kishilar odam go'shti berib boqilgan va temir kishanga solib qo'yilgan itlardir. Ularning peshonalari misdan, tishlari qayrilgan, tillari bigiz singari o'tkir, yuraklari temirdan yasalgan. Ular shudring ichadi, shamolda uchadi, janglarda odam go'shtini yeydi. Hozirda ular zanjirdan bo'shatib yuborilgan"¹². Bunday axborot-psixologik xurujlarini tarqatish orqali shahar mudofaachilari orasida sarosimi va o'z kuchiga nisbatan ishonchni so'ndirish maqsad qilingan. Ruhiy barqarorlikni qo'shinlar jangovar g'alabasini ta'minlashda muhim omil ekanligini inobatga olsak, bu hiylaning nechog'liq dahshatli ekanligi ko'z oldimizga keladi.

Mo'g'ullar va xorazmshoh qo'shinlari o'rtasida bo'lib o'tgan eng yirik jang – Parvon tekisligidagi jang haqida Juvayniy¹³ning keltirgan tavsifidagi mo'g'ullar va Jaloliddinning harbiy usullari haqidagi ma'lumotlar diqqat talabdir. Tarixchining yozishicha jangning birinchi kuni nihoyasiga yetgandan so'ng tunda Shiku Xutuxu¹⁴o'z askarlariga kigizdan odam haykallarini yasashni buyuradi. Ertasi tongda jang boshlangan mahalda Jaloliddinning jangchilari mo'g'ul qo'shinining safi ortganini ko'rib, dushman madad olibdi degan hayol Sulton qo'shinlarining ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo shu yerda Jaloliddin ularga dalda berib, xufyalar orqali aniqlangan axborot buning hiyla ekanligiga butun qo'shinni ishontira oladi va ularning jangovar kayfiyatini qayta vujudga keltirishga erishadi¹⁵. Mo'g'ullar chekina boshlagan paytda "butun qo'shin Sulton farmoniga binoan nog'oralarni chalib, otlarga mindi va birdaniga hujumga o'tdi, mo'g'ul qo'shini qochishga tushdi. Shu asnodda ular qo'qqisdan orqaga qaytib, Sulton qo'shiniga tashlandilar va qariyb 500 yuz kishini yerga qulatdilar. Sulton Jaloliddin chnagalzor sherlari va quturgan dengiz nahanglari yanglig' shu ondayoq yetib keldi, mo'g'ullar taslim bo'ldilar"¹⁶. Sultonning qo'shini jangovarlik ruhini ko'tarish maqsadida shaxsiy namuna ko'rsatib yashindek tezlikda hujumga o'tishi, albatta jangchilarning jangovarlik sifatlariga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatgan. E'tiborlisi shundaki, Jaloliddinning bu g'alabasidan keyin bir qancha shahar aholisi mo'g'ullarga qarshi isyon ko'tarib, mo'g'ullarning noiblarini o'ldirishadi.

¹² X.Ziyoyev. O'zbekiston mustaqillik uchun kurashlarning tarixi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent-2001. 41-b.

¹³ Alouddin Otamalik Juvayniy XIII asr 20 yillarida tug'lib, XIII asr 60-yillarida yashagan tarixchi. Uning "Tarixi jahonkushoy" (Jahon fotix tarixi) asari mavjud.

¹⁴ Chingizxon tomonidan kuchayib borayotgan Sulton Jaloliddin Manguberding zafarli yurishlariga xotima yasash maqsadida 45 ming kishlik qo'shinga bosh qilib yuborgan sarkarda. Ular o'rtasida tarixiy jang Parvon tekisligida bo'lib o'than.

¹⁵ О.Бўриев, Н.Тошев. Жалолитдин Мангуберди (даври саркардалик фаолияти, манбалар) "Фан" нашриёти. 1999-й. 24-6.

¹⁶ O'sha asar... 25-bet.



Tadqiqot natijalari. Mo'g'ul lashkarboshilaridan biri Taynal no'yon Jaloliddinning bu jangdagi jasoratini ko'rib, shunday degan ekan: "Haqiqatan ham u o'z davrining bahodiri va tengqurlarining dohiysidir". Isfahon yaqinida behisob mo'g'ullar lashkari yashirib kelayotganidan vahimaga tushgan xonlar Uning oyog'iga bosh urishdi. Jaloliddin avvaliga ularni bir oz kuttirib qo'yib, so'ng bamaylixotir huzurlariga chiqadi. Sulton xotirjamlik bilan amirlariga mo'g'ullar to'g'risida emas, boshqa masalalardan so'z ochadi. Manguberdi bu bilan dushmani nazar-pisand qilmasligini bildirmoqchi va amirlarni tinchlantirmoqchi edi. Nihoyat, uzun suhbatdan so'ng, Sulton hozir bo'lganlarni o'tirishga taklif etdi va mo'g'ul masalasini muhokama qilishga kirishdi.

Jaloliddin Manguberding Vatani, millati va dinining g'ururini barcha narsadan ustun qo'yishini tarixchilarning ushbu qaydlaridan ham bilsa bo'ladi.

Hirotni qamal qilish paytida Jaloliddin singlisi Xonsultondan xat oladi, u taqdir taqozosi bilan Chingizxonning o'g'li Jo'chining xotini bo'lgan edi. Maktubda shunday deyilgandi: "Sening qudrating, kuching va mulklaringning ulkanligi haqidagi xabar Xoqonga yetdi. Shuning uchun u sen bilan qarindosh bo'lishga qaror qilib, mulklaringiz chegarasini Jayhun daryosi bo'yicha o'tkazish haqida kelishib olmoqchi. Senga — daryogacha bo'lgan, unga — daryodan naridagi yerlar. Shuning uchun agar sen ularga qarshi turishga kuch yig'olsang, qasos ol, agar yengsang, xohlaganingcha ish tutasan. Agar yengishga ko'zing yetmasa, fursatdan foydalanib, ularning istagi bo'yicha sulh tuz!"¹⁷

Biroq Xorazmshoh xatga javob ham yozmadi, uni xuddi keraksiz matoxday nazarga olmadi, niyatlaridan chalg'ituvchi undov deb bildi.

Xorazmshohning atrofidagi davlatlar hukmdorlari — Qo'niyo sultoni Qayqubod I, Damashq hokimi Al-Malik al-Ashraf va yana boshqa hukmdorlar bilan munosabatini ijobiy deb bo'lmasdi. Bundan bilsa bo'ladiki, Jaloliddin diplomatiya sohasida birmuncha qiziqqonlikka yo'l qo'yan. Aynan shu omil Manguberding asosiy dushman – mo'g'ullar oldida yakkalanib qolishiga zamin yaratdi.

Al-Ashrafga yuborgan maktubida Qayqubod I bunday yozadi: "Jaloliddinni qilichsiz to'xtatib bo'lmaydi; unga hushomadgo'ylik qilib ham bir ish chiqazolmayapmiz. Endi so'zlarimiz va ishlarimizni kelishuvga olib kelsak va mamlakatlarimizni himoya qilsak bas".

1230-yil 7-avgustda Arzinjon yaqinidagi Yassi Chaman tekisligida Alouddin Qayqubod I va Xorazmshoh o'rtasida ilk to'qnashuv bo'lib o'tdi. 700 otliq bilan dushmanning 3000 kishilik saralangan suvoriylariga qarshi borgan Jaloliddin g'olib bo'ldi, raqibini yakson qildi. Biroq Xorazmshoh g'alabadan to'liq foydalana olmadi: mag'lublarni ta'qib etib o'tirmadi va uning bu harakati dushmani tor-mor bo'lishdan xalos etdi.

Vaziyatdan foydalanib, o'zini o'nglab olgan ittifoqdoshlar 1230-yil 10-avgustda jang boshladilar. Oqibatda Manguberding lashkari mag'lub bo'ladi va tarqatib yuboriladi. Jaloliddin askarlaridan ajrab, Hirotni tomonga ot soladi.

Xulosa. Xorazmshoh lashkarining yengilganiga qaramay, ittifoqdoshlar harakatlarini uning yerlarigacha davom ettirilmadilar, chunki ular Sultonning chekinishini bir hiyla, deb tushundilar. Ularning qalblarini Manguberdidan qo'rquv va ehtirom shunchalik qamrab olgan ediki, uni ta'qib etishga jur'at eta olmadilar va ortga qaytdilar.

¹⁷ X.Содиқов. Султон Жалолиддин Мангуберди. «Арт Флех» нашриёти 2009-й. Тошкент. 40-б.



Jaloliddinning Yassi Chaman yaqinida tor-mor etilganini eshitgan ismoiliylar mo'g'ullarga Manguberding zaiflashganini aytishadi va ularni hujumga undaydilar.

Mo'g'ullar bu xabarni eshitib, 1230-31 yillarda Ozarbayjonga bostirib kirdilar va sultoni holdan toygan mamlakatni tezda istilo qiladilar. Mag'rur, qaysar Jaloliddin Manguberdi nochor ahvolda qolganidan turli mamlakatlar hukmdorlaridan, hattoki, avval raqib bo'lgan davlat hukmronlaridan ham najot istab, yordamga chaqirishga majbur bo'ladi. Ammo hech kim Islom dunyosining yagona himoyachisiga yordam qo'lini cho'zmaydi. Bu ham yetmaganidek, mo'g'ullar Jaloliddinning qishlovlarga yuborilgan lashkarlari to'planmasidan burun Manguberdiga hujum qiladilar. Xorazmshoh bu ayovsiz va og'ir jangdan bazo'r qutulib qoladi...

1231-yil avgust oyida tushkunlikka tushgan Sulton aysh-ishrat va sarxushlikka beriladi. Shunday kunlardan birida Jaloliddin mast bo'lib qoladi va qattiq uyquga ketadi. U hattoki, o'rdasini mo'g'ullar o'rab olganini sezmay qoladi. Uning sodiq amirlaridan biri O'rxon askarlari bilan Manguberdini qiyinchilik bilan qutqarib qoladi, uni mastligicha otga o'tqazib, choptirib ketadi. Yo'lda Sulton o'ziga keladi va O'rxonga dushman chalg'iydi, degan o'yda boshqa tarafa ketishni amr qiladi-da, o'zi boshqa yo'ldan ot soladi.

Uning o'limidan so'ng, xalq Jaloliddin bu dunyodan ketganiga ishonmadi. U darveshlar orasida bir so'fiy kiyimida Islom mamlakatlarida, xalq ichida kezib yuribdi, degan ishonch bilan yana kuch to'plab bizni himoya qiladi, deb kutdilar. Ular holdan toygan Vatanparvarning bir kurd tomonidan nomardlarcha o'ldirilishiga ishongilari kelmadi.

So'ngso'z o'rnida aytish mumkinki, Jaloliddin Manguberdi barcha davrlarda ham avlodlari xotirasidan o'chmaydigan millat qahramoni. Uning harbiy sarkarda sifatida qo'llagan harbiy usul va taktikalari keying davrlarda qo'shinlar boshliqlari uchun dastur-ul amal sifatida foydalanilgan. Ajdodlar xotirasini yod etish, ularga hurmat ko'rsatish, harbiy rahbarlik xislatlarini, qo'shinni o'z ortidan ergashtira olish uchun, butun boshli qo'shinni o'z kuchiga ishonch ruhida tarbiyalay olish borasida mahorat maktabini biz bugungi kunda o'rganishimiz dolzarbdir.

Jaloliddin Manguberdi – biz uchun yengilmas, jisman ham o'lmas qahramon.

References:

1. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. "Султон Жалолиддин Мангуберди-нинг ҳаёти тафсилоти". Т.: "Ўзбекистон" нашриёти. Камол Матёқубов таржимаси.
2. Matyaqubov E.A. Xorazmshohlar - Anushteginlar davlatining ma'muriy va saroy boshqaruv tizimi, unvonlar va mansablar. (Magistrlik akademik darajasini olish uchun dissertatsiyasi). Urganch.
3. Хасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати Т.: 2018. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
4. М. Ақобиров. Султон Жалолиддин Мангубердининг жанг қилиш усуллари.
5. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо. / Таржима ва сўз боши муаллифи Назарбек Раҳим, Мурсал Узтурк. Т.: Мумтоз сўз, 2015.
6. Буниёдов З. Ануштегин Хоразмшохлар давлати (1097-1231) / Ашраф Аҳмад ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси. Тошкент, 1998.
7. Жумабой Раҳимов. Ватаннинг шерюрак баҳодири. Т.: Талқин, 2015.



8. X.Ziyoyev. O'zbekiston mustaqillik uchun kurashlarning tarixi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent-2001.
9. X.Содиқов. Султон Жалолиддин Мангуберди. "Арт Флех" нашриёти 2009-й. Тошкент.
10. О.Бўриев, Н.Тошев. Жалолиддин Мангуберди (даври, саркардалик фаолияти, манбалар) "Фан" нашриёти. 1999-й.
11. Xomidov, A. A. (2021). XAVFSIZLIK YOSTIQCHASI TURLARI. Интернаука, (22-5), 9-11.
12. Xomidov, A. A., & Abdurasulov, M. (2021). YO'LOVCHI VA YUK TASHISH SHARTNOMASI VA UNING MAZMUNI, MOHIYATI. Internauka, (45-3), 98-99.
13. Xomidov, A. A., & Abdirahimov, A. A. (2021). TRANSPORT LOGISTIKASIDA ZAHIRALAR VA OMBORLASHTIRISH. Internauka, (45-3), 100-103.
14. Хомидов, А. А. Сотиболдийев НМ (2022). ОРГАНИЗАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЕРЕВОЗОК НА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ. Internauka, (224_2), 74-76.
15. Хомидов, А. А., & Сотиболдийев, Н. М. (2022). ОРГАНИЗАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЕРЕВОЗОК НА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ. ИНТЕРНАУКА" Научный журнал, (1), 224.
16. Xomidov, A. A., & Tursunaliyev, M. M. (2022). ISHLAB CHIQRISH LOGISTIKASI. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, (2), 1.
17. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Muhammadali o'g'li, T. M. (2022). ISHLAB CHIQRISH LOGISTIKASI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 401-404.
18. Anvarbek, X., & Murodjon, T. (2022). ELIMINATING CONGESTION ON INTERNAL ROADS. Universum: технические науки, (2-7 (95)), 29-31.
19. Xomidov Anvarbek, & Tursunboyev Murodjon (2022). ELIMINATING CONGESTION ON INTERNAL ROADS. Universum: технические науки, (2-7 (95)), 29-31. [https://7universum.com/pdf/tech/2\(95\)%20\[15.02.2022\]/Xomidov.pdf](https://7universum.com/pdf/tech/2(95)%20[15.02.2022]/Xomidov.pdf)
20. Шодмонов, С. А. (2022). ДАТЧИКИ ТЕМПЕРАТУРЫ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 62-66.
21. Хомидов Анварбек Аҳмаджон ўғли, & Шодмонов Сайидбек Абдувайитович. (2022). ДАТЧИКИ ТЕМПЕРАТУРЫ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 62-66.
22. Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, Qurbonov Islombek Ibrohimjon o'g'li, Хомидов Анварбек Аҳмаджон ўғли, & Қурбонов Исломбек Иброҳимжон ўғли. (2022). AVTOMOBILLARDA YUK YO'LOVCHILARNI XALQARO TASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 5(5), 13.
23. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Ibrohimjon o'g'li, Q. I. Хомидов Анварбек Аҳмаджон ўғли, & Қурбонов Исломбек Иброҳимжон ўғли. (2022). AVTOMOBILLARDA YUK YO'LOVCHILARNI XALQARO TASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 5(5), 13.
24. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Abduvayitovich, S. S. (2022). On-Board Computer and Monitoring System. Eurasian Scientific Herald, 9, 64-71.
25. Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, & Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich. (2022). On-Board Computer and Monitoring System. Eurasian Scientific Herald, 9, 64-71. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1703>



26. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Baxodir o'g'li, N. B. (2022). Manufacturing Logistics. Eurasian Scientific Herald, 9, 60-63.
27. Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, & Negmatov Bekzodbek Baxodir o'g'li. (2022). Manufacturing Logistics. Eurasian Scientific Herald, 9, 60-63.
28. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). DEVICE FOR MANUAL CONTROL OF VEHICLE BRAKE AND ACCELERATOR PEDAL . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 9(2), 77-83. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/2006>
29. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРООБОРУДОВАНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ НА БАЗЕ АДАПТИВНЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ЭНЕРГИИ. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 9(2), 84-92.
30. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). ИССЛЕДОВАНИЯ ОСНОВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ОСТАНОВОЧНЫХ ПУНКТОВ МАРШРУТНОГО ПАССАЖИРСКОГО ТРАНСПОРТА . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 9(2), 93-99.
31. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, Saidolimxon Jaloliddin o'g'li Abbasov, & Sayidbek Abdvayitovich Shodmonov. (2022). GLOBAL ELEKTR AVTOMOBILLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTR MASHINA ASOSLARI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 9(1), 76-82.
32. Shodmonov, S. A. (2022). GLOBAL ELEKTR AVTOMOBILLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTR MASHINA ASOSLARI.
33. Shodmonov Sayidbek Abdvayitovich, Abbasov Saidolimxon Jaloliddin o'g'li, & Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li. (2022). RESPUBLIKAMIZDA YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK XIZMATLARNI QO'SHNI RESPUBLIKALARDAN OLIB CHIQISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 9(1), 83-90.
34. Аббасов Саидолимхон Жалолиддин угли, Шодмонов Сайидбек Абдувайитович, & Хомидов Анварбек Ахмаджон угли. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 9(1), 101-108.
35. Шодмонов, С. А. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ.
36. Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, Sayidbek Abdvayitovich Shodmonov, & Guldona Akbarjon qizi Turg'unova. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 61-66.
37. Shodmonov, S. A., & qizi Turg'unova, G. A. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 61-66.
38. Анварбек Ахмаджон ўғли Хомидов, Сайидбек Абдувайитович Шодмонов, & Гулдона Акбаржон қизи Турғунова. (2022). Результаты Лабораторных Исследований, Проведенных Для Разработки Технологии Регенерации Валов. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 67-72.



39. ўғли Хомидов, А. А., Шодмонов, С. А., & қизи Турғунова, Г. А. (2022). Результаты Лабораторных Исследований, Проведенных Для Разработки Технологии Регенерации Валов. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 67-72.
40. qizi Turg'unova, G. A., Ahmadjon o'g'li, X. A., & Shodmonov, S. A. (2022, December). SUYUQ VA GAZ HOLATIDAGI HAMDA CHANG KO'RINISHIDAGI YUKLARNI TASHUVCHI MAXSUS VA GIBRID AVTOMOBILLAR. In *Conference Zone* (pp. 287-295).
41. Ahmadjon o'g'li, X. A., Shodmonov, S. A., & qizi Turg'unova, G. A. (2022, December). YO'LOVCHI AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARI. In *Conference Zone* (pp. 207-214).
42. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Nabijon o'g, A. O. T. (2022). TRANSPORT VA PIYODALAR HARAkatINING TAVSIFLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH.
43. Ahmadjon o'g'li, X. A., & Ibrohimjon o'g'li, Q. I. (2022). AVTOMOBILLARDA YUK YO'LOVCHILARNI XALQARO TASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.
44. Махамматзокир Тоштемирович Гаффаров, & Анварбек Аҳмаджон ўғли Хомидов. (2022). Регулирование Транспортных Потокoв В Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 73-78.
45. Гаффаров, М. Т., & ўғли Хомидов, А. А. (2022). Регулирование Транспортных Потокoв В Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 73-78. <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/268>
46. Анварбек Аҳмаджон ўғли Хомидов, Сайидбек Абдувайидович Шодмонов, & Гулдона Акбаржон қизи Турғунова. (2022). Определить Поток Пассажиров В Районе Города. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 79-87.
47. ўғли Хомидов, А. А., Шодмонов, С. А., & қизи Турғунова, Г. А. (2022). Определить Поток Пассажиров В Районе Города. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 79-87.
48. Rahmatullo Rafuqjon o'g'li Rahimov (2022). Avtomobil transportida tashuv ishlarini amalga oshirishda harakat xavfsizligini ta'minlash uslublarini takomillashtirish yo'llari. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ*, 750-754.
49. угли Рахимов, Р. Р. (2022). МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЫБОРА ОПТИМАЛЬНОГО ТИПА ПОДВИЖНОГО СОСТАВА ДЛЯ ПЕРЕВОЗКИ МЕДИКАМЕНТОВ ПОТРЕБИТЕЛЮ. *Journal of new century innovations*, 18(5), 109-120.
50. Rafuqjon o'g'li, R. R. (2022, December). TIRSAKLI VALLARNI TAMIRLASH ISTIQBOLLARI. In *Conference Zone* (pp. 333-342).